

XORAZM VILOYATI SHEVALARIDA TASKIN BERISH MAZMUNIDAGI IJOBIY ISTAK BIRLIKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati o'zbek shevalari tizimida inson ruhiyatiga madad berish, og'ir damlarda dalda bo'lish maqsadida qo'llaniladigan ijobiy istak birliklari tadqiq etiladi. Maqolada aza marosimlari, bemor ko'rish va hayotiy qiyinchiliklar vaqtida aytiladigan olqishlar hamda tasalli so'zlarining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dialektologiya, Xorazm shevasi, taskin birliklari, tasalli, lingvokulturologiya, etika, o'g'uz lahjasi.

Аннотация. В данной статье исследуются позитивные пожелательные единицы, используемые в узбекских говорах Хорезмской области с целью оказания психологической поддержки и утешения в трудные жизненные моменты. В работе анализируются лексико-семантические и прагматические особенности благопожеланий и утешительных выражений, употребляемых в похоронных обрядах, при посещении больных и в ситуациях жизненных трудностей.

Ключевые слова: диалектология, хорезмский говор, единицы утешения, благопожелания, лингвокультурология, этика, огузский диалект.

Abstract. This article examines positive wish expressions used in the Uzbek dialects of the Khorezm region to provide psychological support and consolation during difficult life situations. The study analyzes the lexical-semantic and pragmatic features of blessing and consolatory expressions used in funeral ceremonies, visiting the sick, and in times of life challenges.

Keywords: dialectology, Khorezm dialect, consolation expressions, positive wishes, linguoculturology, ethics, Oghuz dialect.

O'zbek muloqot madaniyatida inson ruhiyatiga ehtirom bilan munosabatda bo'lish markaziy o'rin tutadi. Xalq og'zaki nutqida ushbu qadriyat, ayniqsa, kishi ruhiyati zaiflashgan pallalarda qo'llaniladigan taskin birliklari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Xorazm viloyati shevalari o'zining qadimiy o'g'uz va qipchoq qatlamlari hamda emotsional boyligi bilan ushbu lisoniy hodisani o'rganishda boy dialektal material taqdim etadi. Xorazm shevasidagi tasalli birliklari shunchaki nutq odobi emas, balki xalqning ko'p asrlik ma'naviy tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik fenomen hisoblanadi. Mashhur nemis olimi Vilgelm fon Humboldtning "Til – xalq ruhining bevosita tashqi ifodasidir" degan ta'limoti ushbu birliklarning

etnopsixologik ildizlarini ochib beradi [Гумбольдт: 68-75]. O'zbek tilshunosligida muloqot tizimining lingvokulturologik qirralarini tadqiq etgan akademik Nizomiddin Mahmudov ham milliy nutqiy etiketimizda "ko'ngil" tushunchasining markaziy o'rin tutishini, tinglovchiga dalda bo'lish "ma'naviy farz" darajasidagi axloqiy mezon ekanligini ta'kidlaydi [Махмудов:24].

Inson hayotining og'riqli davrlarida ishlatiladigan ushbu lisoniy vositalar tilning kommunikativ vazifasidan tashqari, uning terapevtik va axloqiy-estetik funksiyalarini ham namoyon etadi. Mazkur maqolada to'plangan dialektal materiallar asosida taskin birliklarining semantik-pragmatik xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Bu esa o'zbek tilining muloqot madaniyati va milliy mentalitet qirralarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. To'plangan dialektologik materiallar asosida taskin berish bilan bog'liq ijobiy istaklarni quyidagi semantik guruhga bo'lish mumkin:

1. Aza marosimlaridagi taskin birliklari. Aza marosimlari inson ruhiyati eng zaiflashgan, emotsional beqarorlik cho'qqisiga chiqqan palladir. Xorazm shevalari tizimida bunday vaziyatlarda qo'llaniladigan ijobiy istak birliklari musibatdorga "yolg'iz emaslik" hissini berishga va sodir bo'lgan hodisani ilohiy iroda sifatida qabul qilishga chorlaydi. Voha aholisining lisoniy tafakkurida o'lim fojia emas, balki "qaytarilish" va "omonatni topshirish" sifatida talqin etiladi. Masalan, "Bändälik äkän" iborasidagi bandalik so'zi leksik jihatdan "itoatkorlik" ma'nosini bersa-da, muloqotda "muqarrar qismat" ma'nosini tashiydi. Inson o'zini "banda" deb atashi orqali o'limni ilohiy iroda sifatida qabul qiladi. Bu esa musibatning ruhiy zarbasini yumshatadi. "Amanät žanimizi bir gun hämmämiz tapširamiz" iborasi islomiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq [Jumaboyeva:19]. Bu yerda hayotga omonat (vaqtinchalik berilgan buyum) deb qaraladi. O'lim esa "yo'q bo'lish" emas, balki "omonatni o'z egasiga topshirish" deb talqin qilinadi. Bunday yondashuv musibatdorning ko'ngliga xotirjamlik olib kiradi. "Jatan jeri jağti bolsin, žaji žennetden bolsin" kabi duolarda jağti (yorug') va žennet (jannat) leksemalari markaziy o'rin tutadi [Jumaboyeva: 20]. Lingvokulturologik jihatdan qabr zulmatiga zid ravishda "yorug'lik" so'zining ishlatilishi marhumning oxirati obodligi haqida optimistik (ijobiy) tasavvur uyg'otadi. Bu orqali tirik qolgan yaqinlarining dardi lisoniy jihatdan muvozanatga keltiriladi.

2. Bemor odamni ko'rishga borgandagi ijobiy birliklar. Bemor ko'rish jarayonida ishlatiladigan ijobiy istak birliklari shunchaki muloqot formasi emas, balki bemorda shifo topishga bo'lgan ishonchni (optimizm) uyg'otishga qaratilgan lisoniy vositadir. Xorazm shevasi materiallari asosida ushbu birliklarni tahlil qilsak, ularning zamirida inson ruhiyatini qayta tiklashga yo'naltirilgan murakkab semantik qatlamlar yotganini ko'ramiz. Masalan, "Kormägändäj bob ketäsiz häli" iborasi bemorni hozirgi og'ir holatidan sog'lom kelajakka umid bilan qarashga undaydi [Jumaboyeva: 21]. Bu yerda "ko'rmaganday bo'lish" birikmasi kasallik butunlay chekinishi va hatto bemorning

yodidan ham ko'tarilib ketishi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Gapdagi "hali" (hali) so'zi esa sog'ayish fursati juda yaqin ekanligiga ishora qilib, insonda ertangi kunga nisbatan ishonch uyg'otadi. Xorazm shevasining o'ziga xos dunyoqarashida xastalik jazo emas, balki bir sinov sifatida qabul qilinadi. "Allahimam sujgän bändäsinä dârd berädi" degan gap bunga yaqqol misoldir [Jumaboyeva: 21]. Bu yerda "suyukli banda" va "dard" so'zlari bir-biri bilan bog'lanib, kasallikka nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi. Ya'ni, dard - insonga berilgan azob emas, balki Yaratganning e'tibori va gunohlardan poklanish imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Bu esa bemordagi tushkunlikni hayotga bo'lgan shukronalik hissi bilan almashtiradi.

3. Tashvish va kulfatda qo'llaniladigan tasalli modellari. Hayotiy qiyinchiliklar — moliyaviy muammolar, oilaviy nizolar yoki kutilmagan tashvishlar vaqtida Xorazm shevasida "sabriyat" va "shukur" motivlari asosiy o'rin tutadi. Bu vaziyatlarda so'zlovchi suhbatdoshining ruhiy muvozanatini tiklash uchun bir necha samarali modellardan foydalanadi. Xorazm shevasida keng tarqalgan "Här işdä bir hikmät bar, besäbäb birerizä bir tikanam kirmidi" iborasi insonni chuqur mushohada qilishga chorlaydi [Jumaboyeva: 22]. Bu yerda "tikan" — hayotdagi eng kichik va ahamiyatsiz tuyilgan muammoning ramzi. Agar hatto oddiy tikan ham bekorga kirmasa, demak, boshga tushgan kattaroq tashvishlarning ham o'ziga yarasha sababi va xayrli yakuni bor, degan ishonch beriladi. Ushbu ibora kognitiv jihatdan insonni voqealar oqimiga qarshi kurashishdan to'xtatib, ularni ilohiy rejaning bir qismi sifatida qabul qilishga (teotsentrizm) o'rgatadi. Xalq orasida juda ommabop bo'lgan "Sännänam bätärlä ba" (Sendan ham battarlar bor) iborasi o'zbek mentalitetining o'ziga xos tasalli usulidir [Jumaboyeva: 22]. Bu usul qiyoslash orqali insonning ichki dunyosida shukronalik hissini uyg'otadi. Shaxsiy muammo kattaroq ijtimoiy og'riqlar bilan solishtirilganda, uning emotsional salmog'i pasayadi. Inson o'z dardini dunyodagi eng og'ir dard deb o'ylaganida, unga o'zinikidan ham og'irroq holatga tushganlar borligini eslatish tasalli beradi. Bu "menda hali hammasi yomon emas ekan" degan fikrni uyg'otadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazm shevalaridagi taskin beruvchi ijobiy istak birliklari o'zbek xalqining muloqot madaniyati, diniy qarashlari va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim lisoniy hodisadir. Ular og'ir vaziyatlarda insonni ruhiy qo'llab-quvvatlash, sabr va umid uyg'otish vazifasini bajaradi. Aza marosimlarida bu birliklar taqdir va sabr g'oyalariga, bemor ko'rishda esa shifo va optimizmga asoslanadi, tashvishli holatlarda esa hikmat va shukronalik motivlari ustunlik qiladi. Shu orqali ular nafaqat nutqiy etiket, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Demak, Xorazm shevasidagi taskin birliklarini o'rganish o'zbek tilining dialektal boyligi hamda xalqning ruhiy va madaniy dunyoqarashini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984.
2. Махмудов Н. Тилнинг бахтиёрлик қатламлари. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
3. Dialektologik dala yozuvlari materiallari. Xorazm viloyati. (Yozib oluvchi: Jumaboyeva A.). — Xorazm, 2025.
4. Bazarova M. O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2007.
5. Abdullayev F. Xorazm shevalari leksikasi. — Toshkent: Fan, 1961.
6. Meliboyeva S. A. Ijobiy istak birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari // Academic research in educational sciences. — Toshkent, 2021. — Jild 2. — № 6.
7. Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — Toshkent, 2022. — Vol. 2. — Issue 10.
8. Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // Conference on the role and importance of science in the modern world. — Samarqand, 2025. — Vol. 2. — Issue 9.